

# **BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH: O'QUV DASTURI-O'QITUVCHI-BAHOLASH**

## **XALQARO ILMYIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI  
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KAFEDRASI**

**“BOSHLANG‘ICH TA‘LIM MAZMUNINI  
TAKOMILLASHTIRISH: O‘QUV DASTURI-O‘QITUVCHI-  
BAHOLASH”**

**XALQARO ILMIV-AMALIV ANJUMAN  
MATERIALLARI**

**«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ  
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: УЧЕБНАЯ ПРОГРАММА-  
УЧИТЕЛЬ -ОЦЕНИВАНИЕ»**

**МАТЕРИАЛЫ  
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**“IMPROVING PRIMARY EDUCATION CONTENT:  
CURRICULUM-TEACHER-ASSESSMENT”**

**MATERIALS  
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
CONFERENCE**

**2023-yil 19-oktabr**

**BUXORO – 2023**

3. Yunus, Y., & Yarashov, M. (2023). Effectiveness of experimental work aimed at forming general labor skills in students based on gender equality and differences. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 06011). EDP Sciences.

4. Mamanazarovna, O. O. (2023). FORMING PRAGMATIC COMPETENCE THROUGH TEACHING STUDENTS TO COMMUNICATION. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 720-723.

5. Mamanazarovna, O. O. (2023). Methodology of Development of Communicative Competence of Primary Class Students. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 6-9.

6. Оллоқова, Ў. М. (2022). ФОРМИРОВАНИЕ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ОБУЧЕНИЕ ГРУППАМ СЛОВ НА РОДИНОМ ЯЗЫКЕ И НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(18), 91-95.

7. Olloqova, O. (2022). ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 22, 22.

8. Olloqova, O. (2021). Эффективность Использования Информационно-Коммуникационных Технологий В Повышении Лингвистической Компетентности Учащихся На Уроках Родного Языка. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 1(1).

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY O'QUV DASTURI VA YANGI AVLOD DARSLIKLARI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING DIDAKTIK ASOSLARI**

**Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi**

Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

boymurodovanodirabegim@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda milliy o'quv dasturi va yangi avlod darsliklari amaliyotga joriy etishning didaktik asoslari, hozirda takomillashgan xalqaro reytinglar natijasida tuzilgan, o'quvchilarni yuzaki emas balki haqiqiy savodxonlik, 4K modeli, mantiqiy, tanqidiy fikrlashga chorlovchi dasturlar asosida yaratilgan darsliklar haqida juda ko'plab ma'lumotlar yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** amaldagi dastur, boshlang'ich sinf, darslik, ko'nikma, qobiliyat, vazifa, individual, yondashuv, o'qituvchi, maktab, o'quvchi.

**Abstract:** In this article, the didactic foundations of the implementation of the national curriculum and new generation textbooks in primary education, compiled as a result of improved international ratings, created on the basis of programs that encourage students to not superficial but real literacy, 4K model, logical, critical thinking A lot of information is covered in the textbooks.

**Key words:** current program, primary grade, textbook, skill, ability, task, individual, approach, teacher, school, student.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены дидактические основы реализации национальной учебной программы и учебников нового поколения в начальном образовании, составленные в результате усовершенствованных международных рейтингов, созданных на основе программ, стимулирующих учащихся к не поверхностной, а реальной грамотности, 4К. модельное, логическое, критическое мышление В учебниках изложено много информации.

**Ключевые слова:** текущая программа, начальный класс, учебник, навык, способность, задача, личность, подход, учитель, школа, ученик.

**Kirish.** Ta'lim sifatini oshirish, bolalarni o'qishga qiziqtirishning muhim omili, birinchi navbatda-yaxshi darslik. Davlat rahbarining 2019-yil, 29-apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifalari belgilangan edi. Shunga muvofiq, o'tgan uch yil davomida darsliklarni yangilash bo'yicha ish olib borildi. Maxsus ishchi guruh tomonidan ilg'or xorijiy metodika asosida 1-4-sinf kitoblari yangidan tayyorlandi.

Darsliklar XXI asr kishisi uchun eng zarur bo'lgan "4K" ko'nikmasi bo'yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya). Ya'ni, bu o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

Yangi darsliklarni tayyorlashda PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlardagi namunaviy vazifalar asos qilib olingan. Darslik bilan birga mashg'ulot daftarlari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar ham chop etilgan. Shuningdek, bu tizimga Estudy elektron ta'lim platformasi integratsiya qilingan. Undan dars paytida ham, bo'sh vaqtda ham foydalanish mumkin.

2022-yil 11- mayda "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" prezident farmoni bilan tasdiqlandi. Milliy o'quv dasturi – har bir sinf bosqichi yakunida o'quvchilardan kutiladigan natijalarni hamda bir sinfdan keyingi sinfga o'tishni va o'quvchi qanday natijalarni qo'lga kiritishi kerakligi va baholash jarayonini tushuntirishda yo'nalish beruvchi hujjatdir.

Milliy o'quv dasturida quyidagilar yetakchi o'rin tutadi: - izchillik, uzviylik, uzluksizlik, – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, fan, texnika va ilg'or texnologiyalar rivojining istiqbollari, xalqaro ta'lim standartlari darajasining mavjud holatini inobatga olish asosida, ta'lim mazmunini jahon ta'lim standartlariga moslashtirish; – ishlab chiqarish, fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlash. 2020 yilda yaratilishi boshlangan milliy o'quv dasturlarida XXI asr ehtiyojlaridan kelib chiqib o'quvchilarda shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikmalar belgilangan.

**Darslik** – muayyan o'quv fani mazmunini o'quv dasturida ko'rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilib beradigan kitob sanaladi.

**Darslikning xarakterli xususiyati** - bu uning mazmunining o'quv dasturi mazmuniga mos kelishidir. Darslikda material bo'limlar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu muayyan bob, uning tarkibida bo'lgan bandlar asosida ochib beriladi. O'quv darsligi bir qator talablarga muvofiq yaratiladi. Ushbu talablar quyidagilardan iboratdir: O'quv darsligida ilmiy bilimlar tizimi va hajmi o'quv dasturi talablariga tegishli hajmda sinf talabalarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari hamda g'oyaviy yo'nalishi tizimli va izchil bo'lishi, keltirilgan ma'lumot va dalillarning asosli, ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri tahlil, aniq ta'rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi lozim.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umum ta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagicha:

**Bilim** – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish. **Ko'nikma** – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish.

**Malaka** – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish.

**Kompetensiya** – mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati. Ushbu malaka talablarini o'zida mujassamlashtirgan har qanday o'quvchi kelajakda o'z o'rnini topadi va dunyo standartlariga labbay deb javob bera oladi.

Ilg'or fikrlaydigan, qat'iyatli, o'z maqsadi sari harakat qiladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, muammoni ijobiy yechadigan shaxslar jamiyat taraqqiyoti uchun kerak. Bunday shaxslar iqtisodiyotni rivojlantira oladi, jamiyatni boshqara oladi, hayotimizni o'zgartira oladi. Milliy o'quv dasturida XXI asr ko'nikmalarini singdirish orqali shunday shaxslarni tarbiyalashga harakat qilinmoqda.

Fan texnikaning keskin rivojlanishi, olamning globallasuvi hamda axborot kommunikatsion texnologiyalarning taraqqiy etishi insonlarning dunyo-qarashini, muvaffaqiyatga

erishish usullarini, inson salohiyati, qobiliyati hamda yaratuvchanlik faoliyati jamiyatning asosiy kapitali bo'lib xizmat qiladi. Bu holatda jamiyatdagi har bir o'quvchi shaxsining jamiyatda raqobat bardosh bo'lib shakllanishi, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslashuvchan, faol, ijtimoiy yetuk salohiyatli, yuqori darajadagi bilim egasi, ruhan va qalban chiniqqan komil insonni shakllantirish davlatimiz oldidagi vazifalardan biridir.

**Xulosa.** Fanlarni o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni darslik va turli o'quv manbalari bilan ishlash, matematika faniga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda turli amaliy dasturiy paket va ta'minotlardan, mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi. O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan fazilatlarga ega bo'lish, Vatanni sevish, jamiyat va tabiat haqidagi bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlarga xabardor va daxldor bo'lish, doimo zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashga intilish, hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur. Shu o'rinda matematika fanini puxta o'rganish orqali o'quvchilar tartib-intizomga o'rqnadilar, har bir muammoga matematik masala sifatida qarab, uni yechishda qat'iyatli bo'ladilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2022 — 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi PF-134-son farmoni va uning 1- ilovasi – // Elektron manba. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-6008663?query=milliy%20dastur#sr-1>

2. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 06.04.2017 yildagi 187-son qarori va uning 1-ilovasi – // Elektron manba. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-3153714>

3. 2025 yilda barcha maktablar to'liq milliy o'quv dasturiga o'tadi. – // Elektron manba. O'zbekiston Milliy axborot agentligi sayti: <https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/20/school/>

4. Milliy o'quv dasturi loyihalari, loyiha bo'yicha taqdimotlar. – // Elektron manba. Respublika ta'lim markazi rasmiy telegram kanali: [https://t.me/edurtm\\_uz](https://t.me/edurtm_uz)

## MUNDARIJA

O.X.Xamidov. KIRISH SO‘ZI.....	3
O.X.Xamidov. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMGA XORIJIY TAJRIBALARINI QO‘LLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	4

### **1–SEKTOR: BOSHLANG‘ICH TA‘LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA XORIJIY TAJRIBALAR ..... 6**

Buse Seval İlman, Doç.Dr.Nilay Dereobalı. Erken Çocukluk Eğitiminde Aktif Öğrenme Yaklaşımı Üzerine Yapılan Araştırmaların Sistemik Derleme Çalışması.....	13
Erdal YÜKSEL, Doç.Dr.Nilay DEREOBALI. HİKAYE OKUMA ETKİNLİKLERİNİN OKULÖNCESİ DÖNEM ÇOCUKLARININ KELİME DAĞARCIĞINA ETKİSİNİN BEYİN FIRTINASI TEKNİĞİ ARACILIĞIYLA DEĞERLENDİRİLMESİ .....	25
Шерифетдинова Эльвина Рустемовна. ПРОБЛЕМЫ СОДЕРЖАНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ .....	41
Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BUGUNGI TA‘LIM JARAYONI .....	43
Бабаева Шоира Баймурадовна. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОПРЕДЕЛЕНИЯ И ДАЛЬНЕЙШЕЙ РАБОТЫ С ОДАРЁННЫМИ ДЕТЬМИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.....	46
Nigmatova Mavjuda Maxmudovna. MAKTABGACHA TA‘LIMDA XORIJIY TAJRIBA .....	49
Azimov Yunus Yusupovich. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TO‘G‘RISIDA AYRIM MULOHAZALAR .....	52
Хусенова Азиза Шариповна. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ В ОПРЕДЕЛЕНИИ УРОВНЯ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ИССЛЕДОВАНИЯХ PIRLS .....	55
Kuchkarova Shakarjon Azimboy qizi. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI .....	59
Рахматуллина Шаура Мажитовна. ОБНОВЛЕННЫЙ ФГОС НОО ЕГО ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	68

### **2–SEKTOR: MILLIY O‘QUV DASTURINING AMALIYOTGA JORIY ETILISHI, YANGI AVLOD DARSLIKHLARI..... 71**

Saidova Muhabbat Shukrullayevna. YANGI AVLOD DARSLIKHLARI TA‘LIM JARAYONINING MUHIM BO‘G‘INI SIFATIDA .....	71
SH.M.Farmonova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA YANGI AVLOD DARSLIKHLARINI YARATILISHINING METODIK IMKONIYATLARI .....	72
Husenova Aziza Sharipovna. MILLIY O‘QUV DASTURINING DIDAKTIK ASOSLARI VA UNING TA‘LIM TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.....	78
X. Gulyamova. OLIY TA‘LIMDA TALABALARNI MAKTABDA LEKSIKOLOGIYANI O‘QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI .....	80
Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi. YANGI AVLOD DARSLIKHLARIDA ETNOPEDEGOGIKA NAMUNALARINI YORITILISHI BORASIDA.....	85
Jumayeva Habiba G‘aforovna. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARI UCHUN YANGI AVLOD DARSLIKHLARINING JORIY ETILISHI.....	88
Olloqova O‘g‘iljon Mamanazarovna. YANGI AVLOD DARSLIKHLARI - O‘QUVCHILARNING HAYOTIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSI .....	90
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MILLIY O‘QUV DASTURI VA YANGI AVLOD DARSLIKHLARI AMALIYOTGA JORIY ETILISHNING DIDAKTIK ASOSLARI.....	93

### **3–SEKTOR: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO TAJRIBALAR..... 96**

Azimov Yunus Yusupovich, Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich. O‘QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH (PIRLS) TIZIMIGA TAYYORLASH.....	96
Jahongir Yuldoshev. STEAM – YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARINING INTELLEKTUAL SALOHİYATINI OSHIRISH .....	98